

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA

Majidova Shahnoza o‘qituvchi,
Termiz davlat pedagogika instituti
Tel. +99 897 691 14 08

Annotatsiya

Ushbu maqolada gidronimlar tilshunoslik sohasida keltirilgan. Gidronimika toponimikaning tarkibiy qismi bo‘lib, onomastikaning ilmiy yo‘nalishi sifatida tilshunoslikning dialektologiya, etimologiya, terminologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya, til tarixi sohalari bilan zich aloqadorligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: joy nomlari, dialektologiya terminologiya, so‘z yasalishi, inshoot, amaliy soha, ariq, soy, band, to‘g‘on, buloq, kollektor, koriz, daryo.

Аннотация

В данной статье речь идет о гидронимах в языкознании. Гидронимика является составной частью топонимии, а как научное направление ономастики выделяется тесная связь языкознания с областями диалектологии, этимологии, терминологии, морфемики, словообразования, морфологии, истории языка.

Ключевые слова: топонимия, диалектологическая терминология, словообразование, структура, област применения, ров, ручей, плотина, плотина, родник, коллектор, выгребная яма, река.

Annotation

This article refers to hydronyms in linguistics. Hydronimics is a component of toponymy, and as a scientific direction of onomastics, the close connection of linguistics with the fields of dialectology, etymology, terminology, morphemics, word formation, morphology, and language history is highlighted.

Key words: place names, dialectology terminology, word formation, structure, field of application, ditch, stream, dam, dam, spring, collector, cesspool, river.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Joy nomlari - toponimiya doirasiga suv obyektini va inshootlarining nomlari ham kiradi. Suv obyektini va inshootlarining nomlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganuvchi soha gidronimika deb ataladi.

Gidronimika termini tarkiban grekcha *hydro* - suv, onoma - nom va *-ika* - oid kabi ma'noli qismlaridan iborat bo'lib, "*suv obyektlarining nomlariga oid*" degan lug'aviy ma'noga ega.

Gidronimika toponimikaning bir bo'limi sifatida o'zining o'rganish obyektini va predmetiga ega. Gidronimika tilshunoslikning nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi.

Suv obyektlarining nomlari gidronimlar, ularning majmui gidronimiya deb yuritiladi. Toponimikaga oid ilmiy manbalarda gidronimlar sirasi turlicha qayd etiladi. S.Qoraev gidronimiya doirasiga *daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, jilg'alar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalarning* atoqli nomlarini kiritgan.[5: 3]

N.Oxunov esa gidronimlarni "Suv obyektlarining, ya'ni dengiz, daryo, ko'l, soy, ariq, buloq, quduq singarilarning atoqli otlaridir" deb izohlaydi.[4:5] Ba'zi manbalarda gidronimlar majmui to'la qayd etilmagan, balki gidronimlarga "Daryo, suv havzalari kabilarning nomi"[2:10] degan izoh berish bilan kifoyalanilgan. Gidronimlar terminini N.Begalievagina birmuncha mukammalroq izohlagan: "Gidronimlar – o'zanida suv mavjudligi bilan yaqin bo'lgan, ya'ni akvatoriyaga tegishli obyektlar, okean, dengiz, qo'ltiq, bo'g'oz, ko'l, botqoq, daryo, irmoq, ariq, sharshara, quduq va boshqalarning nomlari".[1:3]

Gidronimlar tushunchasi tilshunoslik nuqtai nazaridan keng qamrovga ega. Quyidagi suv obyektini va suv inshooti nomlari o'zbek tilining toponimik sathida alohida semantik guruhni - gidronimlarni, ya'ni gidronimiyani tashkil etadi:

1) ariq nomlari: Jo'yi bachi she'r, Jo'yi Yusuf, Novariq (Boysun t. Darband q.), Jo'yi Chinor, Jo'yi Kabutiy, Jo'yi Kalon, Jo'yi Qayirma, O'rtaariq, Qizilariq, Toirariq//Tohirariq, Tutisiyo(h) (Boysun t. Sayrob q.), Bo'zariq, Shaymatariq, Jari chol, Jo'yi Chinor, Noviob (Boysun t. Xo'jabulg'or q.), Qaroqchiarig (Sherobod t. Xatak q.) kabi;

2) band, to'g'on, damba nomlari: Jonchekka, Xatib, Ostana (Qotatog'daryo), Sufiyon, Dashnobod (Obizarang), Chilmirob, Otkamar, Xayrobod, Xazarbog', Daytulak (Sangardakdaryo), Xidirsho, Xazarbog' (Xo'jayipokdaryo), Fayzova, Qumqo'rg'on, Kokaydi, Yangiariq, Termiz, Jingiljar, Dazara, Polvontosh, Ozod, Xo'jakamol, Yangiariq, Jo'yjangan, Yoshlik (Surxondaryo) kabi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3) buloq, chashma nomlari: Pudinabuloq (Boysun t. Machay q.), Jiydabuloq (Boysun t. Sho'rob q.), Xayrashiq (Boysun t. Sho'rob q.), Yonar buloq, (Boysun t. Darband q.), Aynibuloq, G'o'rinbuloq, Gandabuloq, Luxlux//Luxliq, Qizilbuloq, Suzundiki Mo'min, Xo'jamayxona (Boysun t. Sayrob q.) kabi;

4) gidrouzel nomlari: Jarqo'rg'on gidrouzeli (Jarqo'rg'on t.) kabi;

5) daryo nomlari: Surxondaryo, Qoratog', Amudaryo, Obizarang, To'palang, Sangardak, Sherobod, Xo'jaipak kabi;

6) jilg'a nomlari: Cho'chqaturuq, Cho'qqining orasi, Darachiq, Ingichka, Kapali, Kishibilmas, Oqtaxona//Oxtoxona, Ostonaqul, Qirq olma, Septalx (Sherobod t. Kampirtepa q.), Dunovgi (Oltinsoy t.) kabi;

7) irmoq, o'zak nomlari: Sangardak, Qoratog' To'palang (Surxondaryo irmoqlari), Machay, Irg'aylisoy (Sheroboddaryo irmoqlari), kabi;

8) kanal, arna nomlari: Novshahar, Tallimarjon (Angor t.), Bo'zariq, Munchoq (Boysun t.), Xayrabod, Tojikon, Qora-suv (Denov t.), Zang, Bobotog' (Jarqo'rg'on t.), Kakaydi, Tangimush (Qumqo'rg'on t.), Bandixon, Aqqapchig'ay (Qiziriq t.), Jayxun, Zang, (Muzrabot t.), Xidirsho, Oqsuv, Yangiariq, Oqqopchig'ay, Tushsoy, (Oltinsoy t.), Galabuta, Murchagay, Yangiariq, Xar-kush, Sarijo'y, Dashnobod, Tolariq (Sariosiyo t.), G'arbiy, Sharqiy, Termiz, Uchqizil (Termiz t.), Guros, Xatib, Astana, (Uzun t.), O'ng shahobcha, Istara, Sherobod (Sherobod t.), Po'stin, Tangiz (Tangiz-2), Ko'kon (Kakan), Daytulak, Tangimush (Sho'rchi t.) kabi;

9) kechuv // kechik nomlari: Termiz, Pattakesar (Termiz t.), Yorgoh, Ayvoj, Kalif (Sherobod t.), Qorakamar (Muzrabot t.), Sho'rob, Cho'chqaguzar kabi;

10) kollektor nomlari: Angor Zang kanali, Parallel, Uchqizil (Angor t.), Andijonsoy, Devona, Sangardak, Yurchi (Denov t.), Mehnat Rohat, Ahmatqul, Minor, Oqqo'rg'on, Xayitobod (Jarqo'rg'on t.), Urgulsoy (Qiziriq t.), Jaloir, Yanbosh (Qumqo'rg'on t.), Angor (Muzrabot t.), Bibizaynab, Jindibuloq, Qarmoqsoy (Oltinsoy t.), Qorasuv (Sariosiyo t.), Fayoztepa (Termiz t.), Guliston (Uzun t.) kabi;

11) koriz nomlari: Teshik koriz (Sherobod t. Guliston q.), Eshonkoriz (Sherobod t. G'urjak q.), Olloyorkoriz (Sherobod t. Qizilolma q.), Katta Bedak koriz, Oyshatut koriz (Sherobod t. Sherjon q.), Turkkoriz (Sherobod t. Pashxurt q.), Chag'atoy (Sherobod t. Oqtosh q.), Chorbog' koriz, Ko'rkoriz, Qizilboy, Tolkoriz, Turkkoriz, Zindon korizi (Sherobod t. Oqtosh q.) kabi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

12) ko‘l nomlari: Kattako‘l (Boysun t. Sho‘rob q.), Ko‘limohi (Boysun t. Darband q.), Ko‘lchak (Boysun t. Machay q.), Bo‘tako‘l, Sho‘rko‘l, Tuyako‘l (Sherobod t. Xomkon q.), Ko‘lvot (Sherobod t. Xatak q.), Yettiko‘l (Sherobod t. Xatak q.), Oydinko‘l (Sherobod t. Zarabog‘ q.), Quli Jo‘raboy, Quli Xumra (Sherobod t. Vandob q.), Sho‘rko‘l (Sherobod t. Oqtosh q.), Ayg‘irko‘l (Sherobod t.), Dillako‘l (Termiz t.) kabi;

13) nasos stansiyasi nomlari: O‘tanjar, “O” piket, Kattaqum (Termiz t.), Jayxun (Muzrabot t.), Ozod (Sho‘rchi t.), Jing‘iljar (Uzun t.) kabi;

14) soy nomlari: Abdujabbor (Boysun t. Darband q.), Uzunsoy, Abrikli (Sherobod t. Qizilolma q.), Anbarsoy (Denov t. 8-mart.), Omborsoy (Boysun, Denov t.), Arna (Ko‘hitangtog‘ yonbag‘irlari), Arabo‘ldi (Sherobod t. Pashxurt q.), Archi Og‘aboy (Boysun t. Sayrob q.), Ariqoshgan (Sherobod t. Zarabog‘ q.), Avlodsoy, (Boysun t.), Bandixonsoy (Boysun t.), Beshbuloqsoy (Sherobod t.), Bo‘rilisoy (Sherobod t. Maydon q.), Bodomchali (Boysun t. Sayrob q.), Bog‘i So‘xta (Boysun t. Panjob q.), Burgutuya (Sherobod t. Kampirtepa q.), Changaksoy (Sherobod t. G‘urjak q.), Cho‘yonsoy (Boysun t. Sho‘rob q.), Dalatoysoy (Sherobod t. Guliston q.), Danimordkush (Boysun t. Sayrob q.), Danisesoy (Boysun t. Sayrob q.), Davlatsoy (Sherobod t. Guliston q.), Eshako‘ldi (Sherobod t. Kampirtepa q.), G‘ishaklisoy (Boysun t. Chilonzor q.), G‘urraksoy (Sherobod t. G‘urjak q.), G‘o‘rinsoy (Sherobod t. Qorabog‘ q.), Gandabuloqsoy (Sherobod t.), Gulgunlisoy (Sherobod t. Kampirtepa q.), Govurgan (Denov t.), Hazarmish (Boysun t. Sho‘rob q.) kabi;

15) suv omborlari: Oqtepa (Jarqo‘rg‘on t.), Uchqizil (Termiz t.), Degrez (Oltinsoy t.), Janubiy Surxon (Qumqo‘rg‘on t.), To‘palang (Sariosiyo t.) kabi;

16) sharshara nomlari: Nelu (Sariosiyo t.), Sangardak (Sariosiyo. t.) kabi;

17) botqoqlik nomlari: Denov, Yurchi, Fayzova, Oqtumshuq, Oqqo‘rg‘on kabi;

18) quduq nomlari: Soriqquduq (Boysun t. Machay q.), Oyinni quduq (Boysun t. Sho‘rob q.), Galaquduq (Boysun t. Sayrob q.), Adiri Ko‘rquduq (Boysun t. Panjob q.), Galaquduq (Sherobod t. Xomkon q.), Quduq (Sherobod t. Xatak q.), Sardoba (Sherobod t. Guliston q.), Xolmirzaquduq (Sherobod t. Qizilolma q.), Quduq (Sherobod t. Maydon q.), Zindon (Sherobod t. Pashxurt q.), Tutli quduq//Tulug‘uduq (Boysun t. Chilonzor q.), Bolquduq (Denov t.), Og‘zikeng (Qumqo‘rg‘on t.), Jelkillak (Sherobod t.) Jinjak (Jarqo‘rg‘on t.) kabi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

19) hovuz nomlari: Hovziqallaj (Boysun t. Darband q.), Qoqisunchali (Boysun t. Sayrob q.), Qizilhovuz (Sherobod t. Xomkon q.), Odina boboning hovuzi (Sherobod t. Kampirtepa q.), Ko'khovuz (Sherobod t. Pashxurt q.), Qoq (Sherobod t. Oqtosh q.) kabi;

Demak, gidronimika keng ma'nodagi tabiiy suv obyektlari va suv inshootlari nomlarini tadqiq etadi. Sun'iy va tabiiy, yirik va kichik suv obyektlari hamda suv inshootlarining atoqli otlari gidronimlar hisoblanadi.

Gidronimlar tilshunoslikda qanday suv obyekti nomini anglatishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Okeanonim (yunoncha *okeapos* + *opota*) - okean va uning qismlarining atoqli nomlari.
2. Pelagonim (grek pelagos - dengiz + onoma-nom) – dengiz va uning qismlari nomi.
3. Limnonim - ko'l nomlari.
4. Potamonim - daryolarning nomlari.
5. Gelonim – botqoq va botqoqliklarning atoqli nomlari.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlari asos qilib olingan. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida daryolar hayotning muhim manbai vazifasini bajargan.[6:43] Hozir ham O'zbekistonning viloyatlari, tumanlari, shaharlari asosan daryo nomlari bilan ataladi: *Sirlaryo viloyati*, *Surxondaryo viloyati*, *Qashqadaryo viloyati*, *Norin tumani* (Nam. v.), *Oqdaryo tumani* (Sam. v.), *Sirdaryo tumani*, *Sayhun shaharchasi*, *Sirdaryo shahri* (Sir. v.), *Yuqori Chirchiq*, *O'rta Chirchiq*, *Quyi Chirchiq tumanlari* (Tosh. v.), *Qashqadaryo shahri* (Qashqa. v.) kabilar. Shuningdek, qadimgi tarixchilar xalqlarning joylashuv chegaralarini daryolar bo'yicha ajratganlar. [6:74]

Dalillardan ko'rinadiki, gidronimlar, ayniqsa, yirik suv obyekti nomlari xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, "Nomlardan nomlar tug'iladi" degan xalqona naqlning amaliy isboti o'laroq, toponimlarning boshqa turlarining tug'ilishiga, yaratilishiga asos bo'lgan. Biz bu haqida quyida batafsil fikr yuritamiz.

O'zbek tilshunosligidagi toponimikaga oid ilmiy manbalarda gidronimika sohasi o'rganadigan masalalar ko'lami ham aniq belgilanmagan va ko'rsatilmagan. S.Qorayev bu masalada fikr yuritib, "Toponimikaning bo'limi gidronimika suv obyektlarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o'rganadi" deb ko'rsatadi. [7:14] Bu umuman to'g'ri. Shu bilan birga, bizningcha,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

gidronimika o'rganadigan ilmiy -nazariy va amaliy masalalar doirasi kengroq. Gidronimika toponimikaning tarkibiy qismi, onomastikaning ilmiy yo'nalishi sifatida tilshunoslikning paydo bo'lishi va shakllanishining lisoniy, nolisoniy omillari, gidronimik aniqlagichlarning lisoniy xususiyatlarini va gidronimlar tarkibidagi vazifasi, ilmiy tamoyillari, tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda tilning gidronimik sathidagi lisoniy o'zgarishlar, lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari, morfemik, morfologik va yasalish jihatlari, tilning apellyativ leksik sathi bilan gidronimik leksik sathi munosabatlari, folklor, tarix, geografiya va qadimiy qo'lyozmalardagi gidronimlarning yaratilishi, mahalliy lahja va shevalarga oid xususiyatlari, imlosi bilan bog'liq ilmiy-amaliy muammolar, etimologiyasi, gidronimik xaritalar, gidronimik lug'atlar tuzish masalalarini bilan zich aloqador bo'lgan gidronimlarning o'rganilishidagi muhim masalalar ekanligini belgilab beradi.

Gidronimika toponimikaning tarkibiy qismi, onomastikaning ilmiy yo'nalishi sifatida tilshunoslikning dialektologiya, etimologiya, terminologiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, til tarixi sohalari bilan zich aloqador.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begaliyev N. Samarqand viloyati gidronimlari (lisoniy tahlil), Filologiya fanlari nomzodi. Dis. Avtoref.- Samarqand: 1994. – B 3.
2. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B 10.
3. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1988. – B 11.
4. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1989. –B 5.
5. Qoraev S. Toponimika – joy nomlari haqidagi fan. – Toshkent: Fan, 1980. – B 3.
6. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B 43.
7. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Toshkent: Fan, 2008. – B 14.

